



## LIRIK TURKUM – MUSTAQIL SHE'RLAR TO'PLAMI

**Muallif:** Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Guliston davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20195958>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida lirik turkum – mustaqil she'rlar to'plami ekanligi masalasi uning tadrijiy taraqqiyoti va takomili nuqtai nazaridan o'rganildi. Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”, Eshqobil Shukur qalamiga mansub “Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar” kabi she'riy turkumlar masala mohiyatini anglatish maqsadida tahlilga tortildi. Lirik turkumga kiritilgan she'rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqa jihatlariga ham e'tibor qaratildi.

**Kalit so'zlar:** sikl she'rlar, tendensiyalar, takomili, yaxlitlik, muallif konsepsiyasi, yangicha shakllanish, mavzu va mazmun birligi, badiiy ifodada uyg'unlik va boshqalar.

Badiiy adabiyotda she'rlar turkumi muallifning dunyoqarashi to'g'risidagi yaxlit tushunchani yetkazish, turli mavzularda muhim masalalarni ochib berish imkonini beradigan o'ziga xos shakl hisoblanadi. She'riy turkumlar yaxlit bir tizim sifatida ko'riladi. Bunday yaxlitlik uni tashkil etuvchi asarlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Turkum she'rlar orasidagi o'zaro bog'liqlik ularni hosil qiluvchi unsurlar tomonidan amalga oshiriladi. “She'riy turkum – bu muallif tomonidan ma'lum bir ketma-ketlikda birlashtirilgan mustaqil asarlar to'plami bo'lgan badiiy tizim” [7:12]. Turkumning qiymati har doim uning tarkibiy qismlari qiymatlarining yig'indisidan kattaroq, chunki turkumni tashkil etuvchi unsurlar, ularning o'zaro ta'siri butun turkumning yangi ma'nosini keltirib chiqaradi, ma'noda katta rol o'ynaydi.

She'riy turkumlarda uning asosiy mavzusini o'z ichiga olgan yoki uning talqinini chuqurlashtiradigan asosiy unsurlardan biri – sarlavha hisoblanadi. Masalan, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” sarlavhasi turkumning asosiy g'oyasini o'z ichiga oladi: Matmusa nomi turkumning tuzilishini va poetik shaklning xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu turkumning navbatdagi unsuri she'rlarning tematik birligidir va hokazo.

Ko'rinadiki, turkum tarkibidagi asarlar har biri alohida mustaqil asarlardir.

“Donishqishloq latifalari” turkumi tarkibida “Matmusaning qishlog'i”, “Matmusaning qalpog'i”, “Matmusaning lagani”, “Matmusaning charxpalagi”, “Matmusaning tandiri”, “Matmusaning uylanishi”, “Qiziquvchan Matmusa”, “Matmusa – rassom”, “Matmusaning dutori”, “Tandir kiygan Matmusa”, “Matmusaning mehmondo'stligi”, “Matmusaning qo'shig'i”, “Matmusa va o'g'rilar”, “Matmusaning Amerika ochishi”, “Matmusaning haykali”, “Matmusaning eshak sotgani”, “Matmusaning bog'i” kabi jami 17 ta she'rlar mavjud.

Mazkur turkumning umumiy jihati uning voqealar Matmusa yashagan makon – Donishqishloqda yuz berayotganligi bois shu sarlavhaning tanganganligi. Ikkinchi

jihati 17 ta she'rning ham bosh qahramoni Matmusa ekanligi. Uchinchi jihati – ularning barchasi voqeaband she'rlar bo'lganligi uchun syujet mavjudligi, to'rtinchi jihati – hammasi hajviy mazmunda ekanligi, beshinchi jihati – voqea yuz berayotgan zamon ham bir vaqt ekanligi, kopozitsion yaxlitlik, umumiy mavzu va shoirning bir g'oyaviy niyati ostida birlashtirilganligida va hokazo.

Lekin ayni vaqtda ular alohida asarlar ham ekanligi, she'rlardagi mustaqil sarlavha, mustaqil, tugal syujet va unda barcha syujet unsurlarning mavjud ekanligi, mustaqil kompozitsion qurilishga egaligi va boshqalarda ko'rinadi. "Donishqishloq latifalari" turkumidagi birinchi she'r bo'lgan "Matmusaning qishlog'i" she'ri tahlil qilinganda, uning alohida mavzusi – Matmusa yashayotgan qishloq xususida so'z yuritilishda. Shoirning badiiy maqsadi esa shu qishloq tasviri orqali Matmusada aks ettiriladigan xarakterning omilini ko'rsatish. Yuqorida aytilganidek, she'rning mustaqil syujetiga xos unsurlari, xususan, ekspozitsiyasi:

Donishqishloq degan joy  
Bordir bizning tomonda.  
O'sha qishloq ahlidek  
Dono xalq yo'q jahonda.  
Jo'yak tortib tomiga  
Makka ekkan o'shalar.  
Kalishini perronga  
Yechib ketgan o'shalar [8: 505].

Ya'ni ushbu qishloq xalqi o'ta sodda bo'lganidan tomga makka ekkan, kalishini perronga yechganligi haqidagi ma'lumot syujetdagi tugundir. Yuz qop ganchni suvga biryola qorgan, echkini sartaroshga olib borgan, minoralarni teskari turib qolgan quduqlarga o'xshatgan, tomdan boshlab uy qurishni mo'ljallagan, devori yo'q uyga darvoza o'rnatgan, oyga chiqishning oson yo'li deb temiryo'lni tikka qilishni maslahat bergan, mashinani eshakka yem tashish uchun ishlatgan, pashshaga sopqon otib, chivinga qopqon qo'ygan, pishloq olish umidida oy nuriga xum tutib o'tirgan va xokazo teskari ishlarni qiluvchilar aynan shu qishloq odamlari ekanligi haqidagi o'rinlar syujetning voqealar rivoji qismini izohlaydi. Bu qishloqning Matmusaning qishlog'i ekanligi haqidagi qism kulminatsiya bo'lsa, she'rning so'nggi bandi yechimdir. Ya'ni teskari ish qiluvchi qishloqning qahramoni borligi va u latifalarga asos bo'lishi haqidagi fikr masalaga aniqlik kirtmoqda.

Kitob bo'lar ta'rifi,  
Yozsa ming bir sahifa.  
Donishqishloq ahlidan  
Tinglang uch-to'rt latifa... [8: 505]

"Matmusaning qalpog'i" deb nomlangan she'rda ham o'z syujeti mavjud. Unga ko'ra Matmusa sotib olgan qalpoqni yuvish uchun ulfatlar bilan restoranga borib, ko'p ichganlaridan pul yetmay qolib o'sha qalpoqni restoranga tashlab kelganlari haqidadir. "Matmusaning lagani" she'rda uning bozordan lagan sotib olib, uni uyga olib borganida bolalari pishloq talashib sindirib qo'yishini tasavvur qilib chegachi qidirib sarson bo'lmaslikning oldini olish uchun laganni sindirib, o'sha yerda chegalatib olganidan butun qishloq uning aqliga qoyil qolganligi aks ettirilgan.

Mana shu tarzda davom ettiriladi va har bir she'rning o'z mazmuniga ega bo'lgan mustaqil syujetlari mavjud ekanligi ma'lum bo'ladi. Turkum so'ngidagi "Matmusaning bog'i" deb nomlangan she'ri esa u tomonidan qo'riq yerda barpo qilingan boqqa qishloq ahli tomonidan boshliq va pom-zam, kotibayu shofyor tayinlanganligi, lekin shtat qisqartirish keark bo'lganda, aynan bog'bon – Matmusa qisqartirishga tushganligi ko'rsatiladi.

O'zingiz bir hisoblang  
Xodim ko'pmi, qumursqa...  
Kirib oling siz ham bir  
Telefonlik yumushga [8: 534].

Bu o'sha paytdagi idora tizimining noboplighi zaharxanda kulgu qilinganligi, ya'ni satira yo'li bilan tanqid ostiga olinganligini ko'rsatish edi.

Ma'lumki, "Donishqishloq latifalari" turkumi adabiyotshunoslar tomonidan xuddi Afandi latifalari ajratilganidek, yumoristik va satirik latifalarga ajratilgan. Mazkur latifalardagi Matmusaning kunlik turmushidagi kichik muammolarining yengil kulguga olinishi yumoristik she'rlarning asosini tashkil etsa, davr yoki ijtimoiy hayotdagi jiddiy muammolar achchiq, zaharxanda kulgu bilan hajv qilinsa satirik she'rlar bo'ladi. Turkumdagi "Matmusaning qishlog'i", "Matmusaning qalpog'i", "Matmusaning lagani", "Qiziquvchan Matmusa", "Matmusa va o'g'rilar", "Matmusaning eshak sotgani" kabilar yumoristik xarakterdagi she'rlar, qolgan 11 ta she'r esa satirik xarakterda yaratilgan.

Eshqobil Shukur qalamiga mansub "Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar" nomli turkumi tarkibida 8 ta she'r mavjud bo'lib, ular "So'z", "Tashlab ketilgan ming yilliklar", "Unutilgan so'zlar", "Bitiktoshlar homilasi", "O'lmas askarlar", "Mag'astvi", "Qoshg'ariy yodi", "Mutolaadan so'ng" kabilardir. Ko'rinadiki, birinchi bo'lib kelayotgan "So'z" she'rida so'zning qudrati haqida fikr yuritilgan:

Baridan muqaddas so'z bo'ldi faqat –  
Tangrilar insondan qizg'angan daho,  
Boshi bir yoqadan chiqqan mamlakat,  
Mangulikni yo'rgaklagan ibtido [8: 506].

Ya'ni hamma narsa yo'qlikka mahkum bo'lganda ham, toshbitiklardagi yozuvlar bizgacha yetib kelganligiga ishora qilinmoqda. Toshbitikdagi so'zlarning bugungi kunda ham qadrlanishi insoniyatning so'z qudratiga hamisha ishonganligining dalolati sifatida aks ettirilgan. Shuning uchun ham "so'z"ga "mangulikni yo'rgaklagan ibtido" deya ta'rif berilmoqda.

Ushbu turkumdagi she'rlar yana biri "Tashlab ketilgan ming yilliklar" deb nomlangan bo'lib, ushbu she'rga shoir Rauf Parfi qalamiga mansub "Bechora bo'm-bo'sh uy, ey, sag'ir..." misrasini epigraf sifatida keltiradi. Chunki keltirilajak she'rda o'tgan uzoq o'tmishga nazar solgan lirik qahramonning ushbu cheksizlikdan so'zlaguvchi tirik jon yo'qligi xususida so'zlamochi.

Cho'kkan xarobaday mung'ayib yotgan  
Ming yilliklar ichra tirik jon bormi?  
Barbod bo'lgan ellar falakka otgan –

Isyon qodiqlari yo fig'on bormi? [9: 135].  
Bu orqali shoir tarixning tirik guvohlari yo'qligini aytmoqchi bo'ladi.

“Unutilgan so'zlar” she'ridagi:  
Ruhimda hansirar og'ir qadamlar –  
So'nggi darmoniga suyangan sabot.  
Sizni tili bilan tuqqan odamlar  
Xotirasi bilan o'ldirsa, nahot... [9: 136].

degan misralarning keltirilishi lirik qahramonning tarix zarvaraqlaridan unutilib ketilayotgan so'zlarga achinayotganligini bildiradi. So'zlarning davrlar o'tishi bilan unut bo'lishi uning davomchilarining tilidagi qashshoqlashuvni anglatishidan cho'chigan lirik qahramonning xavotiri bejizga emas edi.

Keyingi she'rda shoirning “Bir Vatanni tutib kipriklarida, Bir xalq chiqib kelar yerning ostidan” deyishidan bu askarlar ham metaforalar ekanligi anglashiladi. Ya'ni ular o'z kelajagi uchun jangga kirayotgan so'zlar lashkari bo'lib, ular o'zlikni unutmaslik tarafdorlari sifatida “Vatanni kipriklarida tutib keladilar”, ya'ni o'z Vatanelarini ko'z qorachig'iday e'zozlaydilar, demoqchi bo'ladi shoir.

Navbatdagi she'rdagi “Mag'astvi – buyuk buddaviy” atamasi qo'llaniladi. Chunki “Oltin yorug'” dostonida Mag'astvi – kichik shahzoda o'rmondagi yo'lbarsning 7 bola ko'rgach, holsizlanib, och qolib ketganini ko'rgach, o'zini qurbon qilib, uning bolalari ochdan o'lmasliklarini ta'minlagan budda ta'limoti vakili sifatida keltiriladigan afsonaga ishora qilinmoqda. Mag'astvining jo'mardligi afsonasi aynan “Oltin yorug'” dostonida bitiklar – so'zlar orqali bizga yetib kelganligi ta'kidlanmoqda.

Turkumdagi “Qoshg'ariy yodi” she'rida shoir ushbu ulug' allomaning ruhi bezovtaligiga asl millat so'zlarining yo'qolib ketayotganligi sabab sifatida ko'rsatilmoqda. Bitiktoshlardagi asl boylik, ya'ni qadimiy so'zlarimizni tiklash uchun toshlar yorilib, u yerdan ko'ksida alvon quyoshlarni – nurli qalblarini ko'targan shoirlar chiqib kelayotgani va ular albatta o'z so'zlarimizning yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymasliklarini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Siz nega notinchsiz, Mahmud Qoshg'ariy?  
Yurakday yorilib bormoqda toshlar,  
Ulardan shoirlar chiqib kelmoqda,  
Ko'ksini to'ldirgan alvon quyoshlar [9: 136].

Turkumning so'nggi 8-she'ri bo'lgan “Mutolaadan so'ng”da shoir qadimgi bitiklardagi so'zlarni bir yodga olgach, ularning kelajagi xususida o'y surgani va ularni asrash uchun o'z harakatini boshlaganligini aytmoqchi bo'ladi:

Bitiktoshlar dardin ko'zimga bitdim,  
Ko'nglimga cho'ktirib nolalarini.  
Kul bo'lgan bog'lardan tergani ketdim,  
Bobolarning oltin olmalarini [9: 137].

“Kul bo'lgan bog'lar” yana metafora sifatidagi birikma bo'lib, u ham o'tmish suronlariga yo'qlikka mahkum bo'lgan bitiklar ma'nosini bermoqda. Lirik qahramon sifatida aks ettirilayotgan xalqning fidoyi farzandi bo'lgan shoir bitiklar qatimlaridan

noyob so'zlarni topish uchun chog'langan vatanparvar va so'zparvar sifatida talqin etilmoqda.

Demak, Eshqobil Shukurning "Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar" nomli turkumidagi har bir she'rda uzoq tariximizning biror qati, biror jihatiga ishora mavjud. Ya'ni ular alohida mazmunga ega bo'lgan she'rlar, lekin ularni "qadimiy so'zlarni fidokorlik bilan tiklash" degan badiiy niyat birlashtirib turganligi uchun ham ular turkum maqomiga egadir.

Ko'rinadiki, turkumdagi she'rlarning har biri oshiqning biror kechinmasi tavsifiga bag'ishlangan mustaqil she'rlar ekan. Lekin barchasining lirik qahramoni Nilufar ismli qizga oshiq bo'lgan yigit va asosiy poetik obraz ma'shuqa – Nilufar ekanligi va she'rlar mazmunan javobsiz muhabbat rozlari sifatida aks ettirilganligidan ularni bir turkum tarkibidagi she'rlar deb atash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi ko'rib o'tilgan turkumlardagi kabi boshqa yuzlab turkumlarda ham ular tarkibidagi she'rlar mustaqil asarlar ekanligi anglashiladi. Ya'ni: har bir she'r uchun tanlangan mavzu; shoir badiiy niyatiga bo'ysundirib tanlangan sarlavhasi mavjud bo'lishi; o'sha she'rning o'z poetik obrazlari bo'lishi; mustaqil mazmun; kechinma tavsifi yoki alohida syujet chizig'iga ega bo'lishi kabi jihatlar ularning aynan mustaqil asarlar ekanligini belgilovchi jihatlardir. Lekin ularning turkumlilik belgilari ham mavjud: umumiy mazmunga bo'ysundirilganligi, bosh sarlavha ostida birlashtirilganligi, yaxlit tushunchani anglatishi; makon va zamonda (xronotop) bir ekanligi, yagona lirik qahramon ishtiroki kabi jihatlar shular jumlasidan.

Umuman olganda, turkum tarkibidagi she'rlar mustaqil asar sanalsa-da, ularni alohida olinsa, umumiy mazmunga putur yetishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
2. Fayzullayeva, A. (2010). Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk'ün Şiir Dünyası. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 10(2), 173-184.
3. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.
4. Fayzullayeva, Obidakhon. "Artistic Conditionality In Poetry." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 6, no. 02, 5 Feb. 2025, pp. 32-34.
5. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
6. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN" ATI. Filologik ta" limni takomillashtirish muammolari, 176.
7. Касимова, Альфия Рифхатовна. Лирический цикл как идиостилевая константа в творчестве Анны Ахматовой диссертация ... кандидата филологических наук: – М., 2011. – 157 с.
8. Эркин Воҳидов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2016. – 687 б.
9. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. – Т.: Шарқ, 2002. – 318 б.